O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING NAVOIY
VILOYATI BOSHQARMASI

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel/Faks: 71-203-11-05, E-mail: navoi.ex@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Sultonov Zafar Zokirovich

2026 - yil 19 - martdagi 276129 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani Yangiobod MFY hududida 5-qavatli turar joy binosi qurish.

Buyurtmachi: QIZILTEPA KAFOLAT SAVDO SERVIS MCHJ

Bosh loyihachi: "JIZZAKH GEODETIC" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan

Bosh pudratchi: Tanlov savdolari orqali aniqlanadi.

Qurilish turi: Yangi qurilish

Murojaat raqami: 109798

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o`z hududida qo`shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 8.10.2025 yildagi 221252546-sonli ruxsatnoma.

1.2. Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i 2025-yil 2-iyul sanasidagi 1708-1708212- 231262-sonli. (may.gov.uz).

1.3. Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yangiobod” MFY xududida 5-avatli turar joy majmuasi binosi qurilishi obyekti bo`yicha muxandislik geologiya xulosasi “O`zGASHKLITI” Sirdaryo viloyat filiali tomonidan 2025-yilda tayorlangan, direktor Kuramatov.K.R tomonidan tasdiqlangan.

1.4. Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yangiobod” MFY xududida 5-avatli turar joy majmuasi binosi qurilishi ishchi loyihasini ishlab chiqish uchun berilgan loyihalash topshirig’i, buyurtmachi “Qiziltepa kafolat savdo servis” MChJ direktori D.Muminov tomonidan tasdiqlangan.

1.5. Ob’ektni muxandislik tarmoqlariga ulash uchun texnik shartlar: Ob’ekt elektr ta’minoti uchun “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Jizzax hududiy filiali” tomonidan 23.12.2025 yilda berilgan 08212145608-sonli texnik shart;

1.6. “Jizzax suv ta`minoti” AJ ning 23.02.2026 yildagi 0171-sonli texnik shart.

1.7. Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlari “Qiziltepa Kafolat Savdo Servis” MCHJ rahbari I.Sulaymanov tomonidan 2026-yilda tasdiqlangan xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Buyurtmachining “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi orqali yuborgan 109798-son elektron murojaati.

2.2. Ishlab chiqish bosqichida loyiha hujjatlari - quyidagilardan iborat ishchi loyiha:

- Umumiy tushuntirish xati (PZ), Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS); Teplotexnik hisob

kitob; Energetik pasport;
- grafika qismi, "GP" qismi; turar-joy bino AR, KJ, Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun jihozlash loyihasi chizmalari va OV, VK, EO, PS, ES, NES, NVK qismlari loyihalari;
- smeta qismi (boshlang'ich qiymatini hisoblash, VPR, LRV).
Ob'ektning qiymati QQS bilan joriy narxlarda – 26 599 483,268 ming so'm.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Hudud va qurilish maydonchasining xususiyatlari.

Mazkur qurilishi rejalashtirilgan ob’ekt qurilish maydoni Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani Yangiobod MFY hududida qurish uchun ajratilgan yer maydoni hududida joylashgan.
Qurilish maydoni IVA qurilish-iqlimiy zonalarining joylashuvi, IA iqlim zonalariga kiradi.
Qurilish hududining iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi uzoq issiq, quruq va qishi qisqa, ammo sovuq.
Ushbu qurilish maydoni uchun tashqi havoning eng katta mutlaq harorati +45,80C; eng kichik mutlaq harorat – 31,70C; o'rtacha yillik harorati + 14,8 °C ni tashkil qiladi (Jizzax bo’yicha).
Tashqi havoning o’rtacha sovuq qishki harorati minus -160C.
Qor yuki - 0,50 kPa.
Shamol bosimi - 0,38 kPa.
Yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 381,3 mm (Jizzax bo’yicha).
Yer osti suvlari geologik tadqiqot davri (2025-yil may), O’zgashkliti Sirdaryo viloyat filialining xulosa va tavsiyalariga asosan yer yuzidan 7,20m chuqurlikda topilgan.
Seysmik xususiyatlar bo'yicha tuproq toifasi - III (uchunchi).
Tuproqning mavsumiy muzlashining me'yoriy chuqurligi 0,82 m (Jizzax bo’yicha har 50 yilda bir marta).
“O`zgashkliti” Sirdaryo viloyat filiali tomonidan 2025-yilda tayyorlangan muxandislik geologiya xulosasi natijasiga asosan o’rganilgan qurilish maydonida ikkita muxandislik-geologiya aniqlangan.
Birinchi muhandislik-geologik element (IGE-1) tarkibiga jigarrang rangli, qumoq (suglinok) qatlamlari bilan aralashgan gruntlar kiradi. Ular yer osti suvlari sathidan yuqorida joylashgan bo‘lib, konsistensiyasi qattiq holatdan plastik holatgacha o‘zgaradi.
Elementning qalinligi 5,4–5,6 metr gacha.
Ikkinchi muhandislik-geologik element (IGE-2) tarkibiga jigarrang rangli, qumoq (suglinok) qatlamlari bilan aralashgan supes gruntlar kiradi. Ular yer osti suvlari sathidan pastda va kapillyar ko‘tarilish zonasida joylashgan bo‘lib, plastik konsistensiyaga ega.
Elementning ochilgan qalinligi 6,0–6,2 metr gacha.
Qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball (zilzila takroriyligi 100 yilda bir marta) (QMQ 2.01.03-19 ning 1-ilova jadvali).
Qurilish ploshadkasining seysmikligi – 8 ball (muxandislik geologiya xulosasi natijasi).
Qurilish ishlarini boshlashdan oldin, geologik tadqiqotni amalga oshirgan tashkilotning geologiya (mutaxassis) tomonidan kotlovanni o’rganish va qabul qilish kerak.

Bosh reja.

Mazkur ob’ekt qurilishi Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani Yangiobod MFY hududida joylashgan.
Ishchi loyihasidagi qurilishi rejalashtirilayotgan hududda quyidagi bino va inshootlar nazarda tutilgan:
- 5 qavatli 5 dona turar-joy binosi (loyihaviy);
- Mavjud turar-joy binolari (loyihaviy);
- Chiqindi xonasi (loyihaviy);
- Bolalar maydonchasi (loyihaviy);
- Avtoturargoh (loyihaviy).
Loyihaviy yo’l va maydonchalar beton qoplama. Qurilish va qoplamadan bo’sh maydon ko’kalamzorlashtirish nazarda tutilgan.

Bosh reja uchun texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Umumiy maydoni – 3810,0m2;
Qurilish maydoni - 1255,0m2;
Qoplama maydoni – 1064,0m2;
Obodonlashtirish maydoni – 1491,0m2.

Arxitektura – rejalashtirish va konstruksiya qism yechimi.

Besh qavatli tuar-joy binosi 5 ta blokdan iborat bo`lib, besh podezdli, yer to’la qavat bilan loyihalangan. Bino rejada to’g’ri to’rtburchak shaklda bo’lib A-blok 3ta 21,0x13,0 metr, B-blok 16,6x12,6 metr, V-blok 16,6x12,6 metr rejalashtirilgan. Birinchi qavatda xonalar balandligi poldan shiftgacha 2,70m; 2-5 qavatlarda 2,7m; yer to`la qavat balandligi 1,6m.

Binoning yer osti qavatida muhandislik tarmoqlari joylashtirish uchun xonalar qurish ko`zda tutilgan. Birinchi va qolgan qavatlarda 1-xonali, 2-xonali, 3-xonali turar-joy xonadonlar joylashtirilgan.

Ichki pardozlash: shift – qavatlarda plitalar orasidagi choklar zatirka qilish pardozlashga tayorlash, suvemulsiya bo’yoqlar bilan bo’yoqlash;

Devorlar – yaxshilangan suvoqlash, shpaklyovka qilish va suvemulsiya bo’yoqlar bilan bo’yoqlash; yuvinish xonasi, san uzel xonasi devorlari keramik plitka bilan qoplash;

Pollar – xonalar pollari laminat qoplama qurish, san uzel va yuvinish xonalari pollari keramik plitla qoplash nazarda tutilgan. Pol qoplama ostiga issiqlik himoya qatlami bajarish; san uzel, yuvinish xonalar va shunga o’xshash xonalar pollari 2-qavat gidroizilyatsiya qilish nazarda tutilgan; zina poya va zina ploshadkalri pollari – marmar qoplama qurish nazarda tutilgan.

Tashqi pardozlash: Sokol – keromogranit va mramor plitkalari bilan qoplash; devor – issiqlik himoya qatlami ustidan mustahkam qotirilgan plimer to’r ustidan elimli suvoqlash, “Travertin” pardozlovchi materiali bilan pardozlash; kozeryok va Arxitekturaviy elementlar – penopolistirol elementlari bilan arxitekturaviy elementlar yopishtirish; dereza – PVX profilli derezalar steklopaket oynalar bilan qoplash; eshiklar – kirish eshiklari termo izolyatsiyalangan metall eshiklar, xonalar eshiklari – MDF material; dereza osti taxtalari - PVX profilli; tashqi dereza osti slivlari – ranglangan metall listlardan. Podyezga kirish eshiklari-metalla eshiklardan qilish nazarda tutuilgan.

Texnik iqtisodiy ko’rsatkichlar:

№	Nomlanishi	A-blok(3-ta)	B-blok	V-blok	Jami.
1	Umumiy maydon	4029,6	1073,1	1073,1	6175,8
2	Foydali maydoni	2914,5	829,0	829,0	4572,5
3	Qurilish maydoni	812,1	222,8	222,8	1257,7
4	Qurilish hajmi	14995,2	8834,2	8834,2	32663,6

Konstruktiv qismi.

Turar-joy binosi II turdagi seysmik ta'sirlar qabul qiluvchi to`ldiruvchi (tosh, bloklar, g`ishtlar) karkaslar va yig’ma temir beton ora yopma va tom yopma plitalarlarning birgalikda yaxlit disk hosil qilib ishlashi ta’minlangan va quyidagi asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanib loyihalangan:

Poydevor – yaxlit quyma temir betondan qalinligi 400mm, ostiga 60mm to`shama beton, 2 qavat yopishtiriladigan gidroizol va 30mm qalinlikdagi to`shama beton ishlari bajarish ko`zda tutilgan. Yer to’la qismi devori yig`ma temir betondan va poydevorining tuproq bilan tutashgan yon qismlari sovuq bitum ustidan ikki marta issiq mum emulsiya bilan mumlash nazarda tutilgan.

- Devorlar – tashqi va ichki devor qalinligi 380mm bo’lgan M75 markali g’isht M50 markali sement-qum qorishma (rastvor) bilan terilgan devor, Devorlar balandligi bo’yicha har 675 mm balandlikda SG-1 markali sim-to’r setkalar bilan mustahkamlash nazarda tutilgan.
- Rama – B25 sinfli quyma temir beton;
- Kalonna - B25 sinfli quyma temir beton;
- O’zaklar – B15 sinfli quyma temir beton;
- Sarrov (peremichka) – B15 sinfli quyma temir beton;

- Zina va zina ploshadkalri – tayyor yig`ma temir beton zina va ploshadkalar;
- Ora yopma va tom yopma – tayor yig'ma temir beton O'zDSt 2805:2013 seriyali ko'p g'ovvakli plita; yig'ma temir beton plitalarning yaxlit disk hosil qilishi uchun plita atrofi uzliksiz armatura karkas bilan mustahkamlanib B15 sinfli betondan anti seysmik belbog qurish nazarda tutilgan.
- Tom qoplama – chordoqli, havo almashadigan tom qoplama, profillangan metall list yog'och konstruksiyga mustahkam qotirish orqali amalga oshirish belgilangan. Suv qochirish – tartibli, tashqi suv lotok va suv olib chiqish quvurlari orqali; barcha yog'och konstruksiyalari yong'inga chiqamli vositalar bilan qoplash, chirishga qarshi preparatlar bilan qoplash nazarda tutilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqsiz harakatlanish qism yechimlari.

Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar uchun qulaylik yaratish maqsadida quyidagi ish turlari bajarildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar uchun yo'naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil plitkalar, ishchi loyihada ko'zda tutilgan. Birinchi qavatga tashqaridan binoga kirish uchun pandus va padyomnik loyihada ko'zda tutilgan, Loyihalanayotgan binoning pol sathida nogironligi bo'lgan shaxslar qulay harakatlanishi uchun yo`naltiruvchi va ogohlantiruvchi taktil plitkalar loyihasi ishlab chiqilgan. Tashqi hududda nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar uchun piyodalar yo'lagi loyihalangan, piyodalar yo'lagida taktil plitkalar ishlab chiqilgan. Tashqi hududda avtoparkovka, maxsus belgi, ajratib turuvchi bo'yoqlar, ogohlantiruvchi va yo'naltiruvchi taktil plitkalar loyihada ko`zda tutilgan.

Energiyasamaradorlik.

Ob'ektning energiytejamkorligini oshirish maqsadida loyihaviy bino tom qismida muqobil energiya manbaalari olish uchun quyosh modul panellari o'rnatish, issiq suv olish maqsadida alternativ variant uchun binonig tom qismida quyosh suv isitish kollektorlari o'rnatilgan, ob'ektning ichki va tashqi yoritishi uchun energiya tejamkor lampalar bilan jihozlangan svetilniklar o'rnatish nazarda tutilgan.

Binoning tashqi devorlari issiqlik tejamkorlik maqsadida qalinligi 380mm li g`isht devor tashqi tomonidan qalinligi 50 mm bo'lgan PPJ-130, Y=120÷125kg/m3 markali bazalt asosidagi mineral plitalar yordamida himoyalash nazarda tutilgan. (Issiqlik himoyaning II darajasi).

Pollarning issiqlik izolyatsiyasi uchun qoplama ostidan qalinligi 35mm Ekstruziyalangan penopleks issiqlik himoya qatlam yotqizish nazarda tutilgan; (Issiqlik himoyaning II darajasi).

Tom qismi issiqlik tejamkorlik maqsadida qalinligi 150 mm bo'lgan Y=200kg/m3 mineral plitalar yordamida issiqlik izolyasiya qatlami qurish nazarda tutilgan. (Issiqlik himoyaning II darajasi) Issiqlik saqlash qatlami paroizolyatsiya uchun ruberoid to`shalgan.

Dereza romlari ko'p kamerali PVX profil ikki qavatli steklopaket oynalar bilan oynalangan, pod'ezdga kirish va kvartiraga kirish eshiklari termoizolyasiya qilingan metall eshiklar qurish (Issiqlik himoyaning II darajasi).

Issiq suv, isitish tizimi (sistema otopleniya) quvurlarini pol, devor, orayopma va tom yopma konstruksiyalar bilan kesishgan qismlari issiqlik himoya qilingan; Zamonaviy isitish priborlari o'rnatilgan, termoregulyatorlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Barcha muxandislik tarmoqlarida energiya sarfini aniqlovchi zamonaviy o'lchagichlar o'rnatish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Ichki sovuq suv ta'minoti:

Xo'jalik-ichimlik sovuq suvi mavjud tarmoqlardan ta`minlangan. Sovuq suvning magistral tarmoqlari bitta manbadan ta`minlanadigan sxemada loyihalangan. Quvurlar polipropilen quvurlardan PPR PN-10 D20mm – D63mm, GOST 52134–2003 bo'yicha bajarilgan. Sanitar jihozlarga yetarlicha bosim berish uchun tizimda nasos o`rnatilgan.

Ichki issiq suv ta'minoti:

Issiq suv manbai sifatida elektr qizdirgich ishlatilgan. Quvurlar polipropilen PPR PN-25, D20mm GOST 52134–2003 bo'yicha bajarilgan. Issiq suv umumiy sarfining 25 miqdoriga

hissoblanib issiq suv quyosh panellari o‘rnatilgan.
Ichki oqova-suv:
Maishiy va oqova suvlar sanitariya asboblaridan kanalizatsiya tizimi orqali chiqarilgan. Ichki kanalizatsiya D100mm-D50 mm plastik quvurlardan, GOST 22689–89 bo‘yicha bajarilgan. Gorizontal uchastkalar i=0,02 va i=0.03 qiyalikda chiqish tomon yotqizilgan. Ventilyatsiya stoyaklari tomdan 0,5 m balandlikda chiqarilgan. To‘sqinliklarni bartaraf etish uchun tozalash va reviziya joylari nazarda tutilgan.
Tashqi sovuq suv:
Tarmoq polietelen quvurlardan D110mm, GOST 18599–2001 bo‘yicha bajarilgan. Xo‘jalik-ichimlik suvi texnik shartlarga muvofiq amalga oshirilgan. Tizim SHNK 2.04.03–19 asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yig‘ma temir-beton quduqlari seriyasi 3.900.1–14 sonli nashrga muvofiq o‘rnatilgan.
Tashqi oqova-suv:
Maishiy oqova suvlari sanitariya asboblaridan tabiiy oqim orqali texnik shartlarga muvofiq mavjud quvurga tashlangan. Quvurlar polietilendan, diametri DN160mm, GOST P 32413–2013 bo‘yicha bajariladi. Tizim SHNK 2.04.03–19 asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yig‘ma temir-beton kanalizatsiya quduqlari seriyasi 3.900.1–14 sonli nashrga muvofiq o‘rnatilgan.
Isitish:
Issiqlik manbai-elektr qozonlar. Binoda pastdan tarmoqlangan ikki quvurlik isitish tizimi ko‘zda tutilgan.
Issiqlik tashuvchi — issiq suv, harorati t_n=85°C, t_o=65°C. Isitish tizimi D20mm- D25mm polipropilen quvurlardan bajarilgan. Isitish asboblari sifatida bimetal seksion radiatorlar bilan loyihalangan
Ventilyatsiya:
Binoda ta‘biy va shamollatish tizimi ko‘zda tutilgan. Shamollatishda havo tomga chiqaruvchi havo kanali orqali chiqariladi. Har bir honadon oshxonasi uchun alohida oshxona zonti (кухонная вытяжка) berilgan.
Elektr tarmoqlari.
Turar-joy binosiga elektr ta'minoti “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Jizzax hududiy filiali” tomonidan 23.12.2025 yilda berilgan 08212145608-sonli texnik shartga muvofiq loyihalangan.
Obyektning elektr jihozlash ishchi loyihalari sanitar-texnologik va issiqlik tehnikasi bo‘limlari ma’lumotlari asosida, joriy QMQ-2.04.17-19, YEUTQ (PUE)-2011 ga muvofiq ishlab chiqildi. Tarmoq kuchlanishi 380/220 V. Blok A Hisoblangan quvvat: Rr=165,9 kVt Hisoblangan tok: Ir=265,63 A Blok B va V Hisoblangan quvvat: Rr=134,23 kVt Hisoblangan tok: Ir=214,93 A Elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha 2-toifali iste’molchi hisoblanadi. Loyihada yoritish, isitish va sovutish tizimi uchun elektr jihozlari o‘rnatilishi ko‘rsatilgan. Guruh tarqatish tarmog‘i mis VVGng kabellari bilan amalga oshiriladi va devorning suvoq qatlami ostida berkitilgan Xar bir bino tomida quvvati 10kVt bulgan quyosh fotoelektr stansiyasi o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
Yong‘in signalizatsiyasi.
Yong‘in signalizatsiyasi tizimini integratsiyalashgan xavfsizlik tizimi «Orion» bilan birgalikda modulli-manzilli asosda qurish nazarda tutilgan. Asosiy qurilma sifatida «S2000P» qabul-nazorat pultidan foydalangan. Bu qurilma yong‘in signalizatsiyasi tizimining manzilli komponentlarini boshqaradi. Loyihada yong‘inni aniqlash uchun manzilli tutunli yong‘in xabar bergichlari «ДИП-34А-04» qo‘llanilgan. Ular shift yuzasiga o‘rnatilgan.
Yong‘in xabarlagichlar o‘rtasidagi masofa 20.4.09-07 SHNK talablariga muvofiq 9 metrdan oshmasligi, devorlargacha bo‘lgan masofa esa 4,5 metrdan oshmasligi kerak.
ДИП-34А-04 yong‘in xabarlagichlarini binoda devorga o‘rnatilgan qo‘l signallashtirish tizimiga ulangan.

S2000-SP4 montaj blokini yong‘in signalizatsiyasi tizimiga ulash sim yoki kabellar orqali amalga oshirilgan.
S2000-SHPD4 ni S2000-KDL ga ulash sim yoki kabellar orqali amalga oshirilgan.
IPR 513-3AM yong‘in xabar bergichi evakuatsiya yo‘llarida, poldan 1,5 m dan kam bo‘lmagan balandlikda o‘rnatilgan.
O‘rnatish joyida yoritish darajasi kamida 50 lks bo‘lishi kerak.
Ogohlantiruvchi yorug‘lik ko‘rsatkichlari odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda - koridorlar va zallarda o‘rnatilgan. Ular poldan kamida 20 sm balandlikda, osma shift ustiga joylashtiriladi.
Yong‘in signalizatsiyasi bilan bog‘liq simlarni qo‘yish KCP3H-FRLS2x0.9 kabeli orqali amalga oshiriladi. Kabel yopiq bo‘shliqlarda PVX plastik gofra quvurida (16 mm) o‘tkazilib, beton shiftga mahkamlangan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ushbu loyiha bo’yicha quyidagi maxsus xulosa mavjud.
- Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo`yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 24-oktabrdagi 222903717-sonli xulosasi;
- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Jizzax viloyati boshqarmasi Davlat ekologik ekspertizasining 28.04.2025 yildagi 01-02/04-1394 – sonli xulosasi.
5.2. Ushbu loyiha bo’yicha quyidagi tashkilotlar bilan kelishuv bo’lishi kerak:
• Favqulodda vaziyatlar Jizzax viloyat boshqarmasi yongin xavfsizligi bilan;
• Jizzax viloyati sanitariya epidemiologiya va osoyishtalik markazi bilan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **26 599 483 268** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 167 106 809** so'mga oshirilib,

27 766 590 077 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **19 900 717 742** so'm

Asbob-uskunalar: **4 890 880 541** so'm

QQS: **2 974 991 794** so'm

6.1. Smeta qism.
Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-son qarori “Markazlashgan kapital quyilmalar hisobiga ro’yobga chiqarilayotgan investisiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o’tish to’g’risida”, ShNK 4.01.16-09 “Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” ga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan ABC4-UZ dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan.
Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari va ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi asosida aniqlangan. Ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi buyurtmachi tomonidan kelishilgan holda belgilangan.
Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari narxlari buyurtmachi ma’lumotlari va joriy narxlar katalogiga muvofiq (2025-yil 4-chorak uchun) foydalangan.
Mashina va mexanizmlarni ishlatish narxi resurs varaqlari va buyurtmachining dastlabki ma'lumotlariga muvofiq brendlarga qo'yiladigan me'yoriy talablar asosida olingan.
Pudratchining boshqa xarajatlari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarning 18,58% doirasida qabul qilingan.
6.2 Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yangiobod” MFY xududida 5-avatli turar-joy majmuasi binosi qurilishi ishchi loyixasi loyixa topshirig'iga va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan.
6.3 Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yangiobod” MFY xududida 5-avatli turar-joy

majmuasi binosi qurilishi ishchi loyihasining barcha bo’limlari ko’rib chiqildi.
Shartnoma bo’yicha import va texnologik asbob-uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va bu bilan bog’liq xarajatlar ekspertiza tomonidan hisobga olinmagan.
6.4. Ekspertiza jarayonida mutaxasislar aniqlagan lokal xulosalar ko’rib chiqish jarayonida shaffof qurilish MAT orqali buyurtmachiga yuborilgan.
Aniqlangan kamchiliklarga buyurtmachi va loyiha tashkilotining javob xati asosida loyiha-smeta hujjatlari to`g`irlanganligi qayd etilgan.
6.5. Belgilangan tavsiya etilgan xarajatni qabul qilish to'g'risidagi qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan ishlarning haqiqiy hajmi va mintaqaviy bozordagi narxlardan kelib chiqqan holda birgalikda qabul qilinadi.
6.6. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.
6.7. Buyurtmachiga tavsiya etiladi.
- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchilarning narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi;
- Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Yangiobod” MFY xududida 5-avatli turar-joy majmuasi binosi qurilishi ishchi loyihasi talablarga javob beradi va ekspertizani inobatga olingan holda ushbu xulosaning 5.2. bandga muvofiq ijobiy kelishuvga ega bo’lgandan so’ng, kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.
Tavsiya etilgan qurilish qiymati ish shartnomasini tuzish uchun asos bo'lmaydi.
7.2. Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-son qarorlariga va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tender savdolarini o'tkazish uchun boshlang'ich qiymati Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.
7.3. Davlat ekspertizasi joriy narxlar katalogi tomonidan hisobga olinmagan qurilish materiallari, asbob-uskunalar narxlari uchun javobgar emas, tartibga solish funktsiyasi buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.
7.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan “Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchi loyiha tashkiloti (qabul qilingan loyihaviy echim va qarorlari bo'yicha) zimmasiga yuklanadi.
7.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo’yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2-yil.

Ishtirokchi ekspertlar: Poshonov Usmon Burxanovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Ishimov Farrux Nabijon O‘g‘li, Xudoyberdiyev Akbar Baxodir O‘g‘li, Shayumov Mansur Mustafayevich, Orziyev Azizjon Xasanovich, Bahronov Ismoil Bahriddin O‘g‘li

Bosh ekspert

BAHRONOV ISMOIL BAHRIDDIN O‘G‘LI